ONALARDAGI NEVROTIK HOLATLARNING FARZANDLAR SONI BO‘YICHA PSIXOLOGIK TAHLILI

Bekmirov T.R.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕВРОТИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ У МАТЕРЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ЧИСЛА ДЕТЕЙ

Бекмиров Т.Р.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF NEUROTIC CONDITIONS IN MOTHERS DEPENDING ON THE NUMBER OF CHILDREN

Bekmirov T.R.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Представлен психологический анализ невротических состояний у матерей в зависимости от числа детей на основе эмпирико-статистических данных. Выявлены особенности проявления невроза, тревожности, депрессии, фрустрации, агрессии и ригидности в зависимости от числа детей, рода деятельности, этнопсихологических факторов, семейного положения и возрастных характеристик. Результаты показывают, что у матерей с двумя детьми большинство невротических показателей выражены в большей степени, что связано с процессом адаптации, ростом ответственности и напряженностью межличностных отношений.

Ключевые слова: *невротические состояния, психология матерей, количество детей, тревожность, депрессия, фрустрация, агрессия.*

This article presents a psychological analysis of neurotic conditions in mothers depending on the number of children, based on empirical and statistical data. The study examines the manifestation of neurosis, anxiety, depression, frustration, aggression, and rigidity in relation to the number of children, type of activity, ethnopsychological characteristics, marital status, and age factors. The results indicate that most neurotic indicators are more pronounced in mothers with two children, which is associated with adaptation difficulties, increased responsibility, and interpersonal stress.

Key words: *neurotic conditions, maternal psychology, number of children, anxiety, depression, frustration, aggression.*

So‘nggi o‘n yilliklarda ruhiy salomatlik muammolari global sog‘liqni saqlash tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining sezilarli qismi, xususan ayollar, turli darajadagi xavotirli, depressiv va nevrotik buzilishlardan aziyat chekmoqda [8]. Ushbu holatlar ijtimoiy moslashuv, oilaviy munosabatlar va shaxsning umumiy hayot sifati pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, onalik davri ayol organizmi va psixikasi uchun eng sezgir bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda ruhiy zo‘riqishlar va emotsional beqarorlik holatlari kuchayishi mumkin [6].

Zamonaviy jamiyatda ayol zimmasiga yuklatiladigan ijtimoiy rollarning ko‘pligi, iqtisodiy bosim, oilaviy majburiyatlar va farzand tarbiyasi bilan bog‘liq mas’uliyat nevrotik holatlarning shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Farzandlar sonining ortishi bilan onaning jismoniy va ruhiy yuklamasi ham ortib boradi, bu esa xavotir, charchoq, hissiy beqarorlik va psixosomatik simptomlarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi [5,6].

Jahon statistik ma’lumotlariga ko‘ra, nevrotik buzilishlar, ayniqsa xavotir va depressiya bilan bog‘liq holatlar ayollar orasida erkaklarga nisbatan yuqori darajada uchraydi. Ko‘pgina tadqiqotlar ayollarda ruhiy buzilishlarning uchrashi deyarli ikki barobar ko‘proq ekanini ko‘rsatadi. Bu holat biologik omillar bilan bir qatorda, ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar ta’siri bilan izohlanadi. Onalik esa ushbu omillarning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab jarayon bo‘lib, u ayoldan doimiy psixoemotsional barqarorlikni talab qiladi.

Xorijiy ilmiy manbalarda onaning ruhiy holati bolaning shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan. Nevrotik simptomlari kuchli bo‘lgan onalar tarbiyalayotgan bolalarda xavotir darajasi yuqori, ijtimoiy moslashuv darajasi past va o‘z-o‘zini baholash sust bo‘lishi qayd etilgan [12]. Bu esa mazkur muammoni nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatga ega masala sifatida ko‘rib chiqishni talab qiladi.

O‘zbekiston sharoitida esa onalar ruhiy salomatligi, xususan, nevrotik holatlarning farzandlar soni bilan bog‘liqligi masalasi yetarlicha empirik o‘rganilmagan. Rasmiy statistik ma’lumotlar ko‘pincha faqat tashxis qo‘yilgan holatlarni qamrab oladi, real tarqalish darajasi esa ko‘pincha yashirin qolmoqda. Shu sababli ushbu mavzu ilmiy, amaliy va ijtimoiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda onalardagi nevrotik holatlarning farzandlar soniga bog‘liqligini aniqlash maqsadida kompleks psixodiagnostik yondashuvdan foydalaniladi. Tadqiqot jarayonida so‘rovnoma, standartlashtirilgan psixologik testlar hamda klinik suhbat usullaridan foydalanish rejalashtirilgan. Jumladan, respondentlarda nevrotik simptomlarning umumiy darajasini aniqlash uchun “Nevrozni ekspress-diagnostika qilish testi”, xavotir va depressiv holatlarni baholash maqsadida Yaxin-Mendeleyevichning “Xavotirlanish va depressiya so‘rovnomasi”, shuningdek shaxsning umumiy psixik holati va emotsional barqarorligini aniqlash uchun G. Ayzenkning “Psixik holatni baholash metodikasi” qo‘llaniladi.

Onalarning farzandlariga bo‘lgan munosabat tizimini, emotsional yaqinlik darajasini va tarbiyaviy pozitsiyalarini o‘rganish maqsadida Varga–Stolinning “Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabati testi” dan foydalaniladi. Ushbu metodikalar yordamida onalarning psixoemotsional holati va ularning tarbiyaviy munosabatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar aniqlanadi [1].

Tanlanma turli yoshdagi hamda turli miqdordagi farzandga ega bo‘lgan onalardan shakllantiriladi. Respondentlar farzandlar soniga qarab alohida guruhlarga ajratilib, har bir guruhda nevrotik simptomlarning

namoyon bo‘lish darajasi qiyosiy tahlil qilinadi. Olingan ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, guruhlar o‘rtasidagi farqlar va o‘zaro bog‘liqliklar aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari asosida onalardagi nevrotik holatlarning psixologik mexanizmlari yoritiladi, farzandlar soni ortishi bilan yuzaga келадиган ruhiy yuklamaning xususiyatlari tahlil qilinadi hamda amaliy psixokorreksion va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqiladi [7].

Natijalar

Mazkur tadqiqotda onalardagi nevrotik holatlarning turli ijtimoiy-demografik omillar, xususan, faoliyat turi, farzandlar soni, etnopsixologik xususiyatlar, oilaviy holat va yosh ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi empirik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Umumiy tanlama hajmi 334 nafar onani tashkil etdi [3].

Farzandlar soniga ko‘ra o‘tkazilgan tahlil ayniqsa muhim natijalarni ko‘rsatdi. Nevroz ko‘rsatkichi ikki nafar farzandi bo‘lgan onalarda eng yuqori (H=39,703; p<0,001), to‘rt nafar farzandi bo‘lgan onalarda esa eng past qiymatni qayd etdi. Depressiya ko‘rsatkichi esa aksincha, to‘rt va besh nafar farzandi bo‘lgan onalarda yuqori (H=13,930; p<0,05), bir nafar farzandi bo‘lganlarda esa eng past bo‘ldi (jadval).

Jadval

Ayollarning farzandlar soni bo‘yicha tafovut ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar, n=334					Statistik qiymat	
	bir nafar farzandi bor, n=8	ikki nafar farzandi bor, n=94	uch nafar farzandi bor, n=170	to’rt nafar farzandi bor, n=58	besh nafar farzandi bor, n=4	H	p
Nevroz ko‘rsatkichi	169,50	214,48	159,32	117,16	137,00	39,703	0,000[а]
Depressiya	109,25	160,31	160,44	206,29	190,50	13,930	0,008[б]
Ayzenk bo’yicha xavotirlanish	171,00	196,50	163,75	130,50	175,00	17,391	0,002[б]
Ayzenk bo’yicha frustratsiya	193,25	209,16	158,06	132,19	50,00	33,576	0,000[а]
Ayzenk bo’yicha agressiya	173,50	215,44	153,71	134,47	94,00	35,962	0,000[а]
Ayzenk bo’yicha rigidlik	192,25	201,03	161,54	135,02	54,50	24,822	0,000[а]

Izoh. а – p<0,001, б – p<0,05.

Ayzenk shkalasi bo‘yicha xavotirlanish (H=17,391; p<0,05), frustratsiya (H=33,576; p<0,001), agressiya (H=35,962; p<0,001) va rigidlik (H=24,822; p<0,001) ham ikki nafar farzandi bo‘lgan onalarda eng yuqori darajada namoyon bo‘ldi. Ushbu natijalar ikki nafar farzandli onalarda moslashuv jarayonining murakkabligi, mas’uliyatning keskin ortishi va emotsional yuklamaning ko‘payishi bilan izohlanadi.

Tahlil

Tadqiqot natijalari onalardagi nevrotik holatlarning shakllanishi va namoyon bo‘lishida farzandlar soni, yosh, faoliyat turi, yashash hududi va oilaviy holat kabi ijtimoiy-demografik omillarning muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Farzandlar soniga ko‘ra tafovutlar tadqiqotning asosiy natijalaridan biri bo‘lib, ikki nafar farzandli onalarda nevroz, xavotirlanish, frustratsiya, agressiya va rigidlik ko‘rsatkichlari eng yuqori darajada kuzatiladi. Bu holat moslashuv jarayonining murakkablashishi, mas’uliyatning ortishi va emotsional yuklamaning kuchayishi bilan izohlanadi. To‘rt va besh nafar farzandli onalarda esa ayrim nevrotik ko‘rsatkichlar pastroq bo‘lib, tajriba ortishi va psixologik moslashuv mexanizmlarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Onalarning faoliyat turiga ko‘ra nevrotik holatlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ishlovchi ayollar asosan nevroz va agressiyadan aziyat chekadi. Bu holat ruhiy toliqish, charchoq va ish va oilaviy majburiyatlarning uyg‘unlashmaganligi bilan bog‘liq. Uy bekalar esa ko‘proq xavotirlanish va depressiyaga moyil bo‘lib, bunda ijtimoiy faollikning pastligi, monotonlik va cheklangan ijtimoiy aloqalar muhim rol o‘ynaydi [4,9].

Hududiy (etnopsixologik) tafovutlar shuni ko‘rsatadiki, shahar hududlarida yashovchi onalarda nevrotik simptomlar darajasi yuqori, qishloq hududlarida esa pastroq. Shahar muhitining tezkor hayot sur’ati, shovqin va ijtimoiy bosim psixoemotsional yuklamaning ortishiga olib keladi. Qishloq hududlarida tabiiy muhit va barqaror ijtimoiy aloqalar himoya omili sifatida xizmat qiladi.

Oilaviy holatga ko‘ra farqlar tahlili onalarning ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Turmush o‘rtog‘ini yo‘qotgan onalarda xavotirlanish va depressiya yuqori bo‘lib, yo‘qotish sindromi, psixologik tayanchning yo‘qolishi va kelajak haqidagi noaniqlik bilan bog‘liq [9]. Ajrashgan onalarda esa bu ko‘rsatkichlar pastroq bo‘lib, ruhiy yuklamaning nisbatan kamayganligini ko‘rsatadi.

Yosh tafovutlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, nevrozga moyillik onalarning o‘rta yoshida, ya’ni 28–32 yoshda eng yuqori bo‘lib, bu davr asosiy mas’uliyat va o‘rta yosh krizisi bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, 33–38 yoshda xavotirlanish, agressiya, frustratsiya va rigidlik ko‘rsatkichlari boshqa yosh guruhlariga nisbatan yuqori bo‘lib, ruhiy salomatlikni saqlash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruratini oshiradi [2,11].

Shuningdek, nevrozning asabiylashish bilan to‘g‘ri, salbiy munosabatlar bilan teskari korrelyatsiya qilishi ruhiy holatda salbiy munosabatlar va stress darajasining ortishi nevroz holatining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ifodalaydi [10]. Shu bilan birga, farzandlar soni, yosh, ijtimoiy faoliyat va oilaviy vaziyat kabi omillar nevrotik simptomlarning shakllanishida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan psixologik mexanizmlarni tashkil etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari onalardagi nevrotik holatlarning individual xususiyatlari bilan bir qatorda ijtimoiy sharoit, psixoemotsional yuklama va shaxslararo munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu esa mavzuni nafaqat klinik, balki pedagogik, psixoprofilaktik va ijtimoiy yondashuvlar orqali yechish zaruratini bildiradi.

Xulosa

1. Ushbu tadqiqot natijalari onalardagi nevrotik holatlarning farzandlar soni, faoliyat turi, yosh, yashash hududi va oilaviy holat kabi ijtimoiy-demografik omillarga bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi. Ishlovchi onalarda nevroz va agressiya ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, bu ruhiy toliqish, charchoq va kasbiy-oila majburiyatlarining uyg‘unlashmaganligi bilan izohlanadi. Uy bekalar esa xavotirlanish va depressiyaga moyil bo‘lib, bu ijtimoiy faollikning pastligi, monotoniya va cheklangan ijtimoiy aloqalar bilan bog‘liq.

2. Farzandlar soni nevrotik holatlar darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi: ikki nafar farzandi bo‘lgan onalarda nevroz, xavotirlanish, frustratsiya, agressiya va rigidlik ko‘rsatkichlari eng yuqori bo‘lib, moslashuv jarayonining murakkablashishi va emotsional yuklamaning ortishi bilan izohlanadi. To‘rt va besh nafar farzandli onalarda esa ayrim nevrotik ko‘rsatkichlar pastroq bo‘lib, tajriba ortishi va psixologik moslashuv mexanizmlarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

3. Yosh omili ham muhim determinant bo‘lib, nevrozga moyillik 28–32 yoshda eng yuqori darajada kuzatiladi, 33–38 yoshda esa xavotirlanish, agressiya, frustratsiya va rigidlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi. Bu davr onalar uchun o‘rta yosh krizisi, asosiy mas’uliyat va shaxsiy identifikatsiya muammolari bilan bog‘liq bo‘lib, ruhiy salomatlikni saqlash uchun chora-tadbirlar zaruratini oshiradi [10].

4. Shuningdek, nevrozning asabiylashish bilan to‘g‘ri, salbiy munosabatlar bilan teskari korrelyatsiya qilishi ruhiy holatda salbiy munosabatlar va stress darajasining ortishi nevroz holatining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

5. Umuman olganda, tadqiqot natijalari onalardagi nevrotik holatlarning individual xususiyatlari bilan bir qatorda ijtimoiy sharoit, psixoemotsional yuklama va shaxslararo munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi. Bu esa mavzuni nafaqat klinik, balki pedagogik, psixoprofilaktik va ijtimoiy yondashuvlar orqali yechish zaruratini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Мелибаева РН. Тиббиётда тиббий психодиагностика мақсадларида қўлланилаётган методикаларнинг татбиқ этилиш ҳолати. 2023.
2. Askarova NA, Bekmirov TR., Nurbaeva KB et al. Personal characteristics in children’s psychology as an object of research. 2024.
3. Bekmirov TR. Onalarda nevrotik holatlar diagnostikasining emperik tahlili. Acad Res Educ Sci. 2024;(1),261-4.
4. Bekmirov TR. Onalardagi psixik holatlarning statistik ko‘rsatgichlari. agressiya va xavotirlanish holatlari tahlilida. Inter Educ Global Study. 2025;3(1):312-9.
5. Depression and other common mental disorders: Global health estimates. Geneva WHO 2017.
6. Eysenck HJ. Manual for the Eysenck Personality Questionnaire. L Hodder & Stoughton 1997.
7. Melibayeva RN, Narmetova YK, Bekmirov TR et al. Oilalarda Nevrotik Buzilishlar Sabablari Va Ularni Bartaraf Etish Usullari. Sci J Appl Med Sci. 2023;2(12):695-9.
8. Mental health atlas. Geneva WHO 2022.
9. Rashidovich BT. Onalardagi nevrotik holatlar va bolalardagi yosh inqirozlarining xorij adabiyotlaridagi metodologik tahlili. 2023.
10. Rashidovich BT. Onalarda nevrotik holatlar diagnostikasi natijalarining psixologik tahlili. 2024.
11. Rashidovich BT. Ona va bola o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatning o ‘ziga xosligi. 2024.
12. Varga J, Stolining M. Parental attitudes towards children: A psychological assessment. Budapest Akadémiai Kiadó 2001.

ONALARDAGI NEVROTIK HOLATLARNING FARZANDLAR SONI BO‘YICHA PSIXOLOGIK TAHLILI

Bekmirov T.R.

Ushbu maqolada onalardagi nevrotik holatlarning farzandlar soni bilan bog‘liq psixologik xususiyatlari empirik-statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida nevroz, xavotirlanish, depressiya, frustratsiya, agressiya va rigidlik kabi ko‘rsatkichlarning farzandlar soni, faoliyat turi, etnopsixologik xususiyatlar, oilaviy holat hamda yosh omillari bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Olingan natijalar onalarning psixoemotsional holati farzandlar soniga mutanosib ravishda o‘zgarishini, ayniqsa ikki nafar farzandi bo‘lgan onalarda aksariyat nevrotik ko‘rsatkichlar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur holat moslashuv jarayonining murakkabligi, mas’uliyatning ortishi hamda shaxslararo munosabatlardagi zo‘riqish bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *nevrotik holatlar, onalar psixologiyasi, farzandlar soni, xavotirlanish, depressiya, frustratsiya, agressiya.*

Mualliflar haqida ma’lumot

Bekmirov Tolib Rashidovich, TDTU pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD. Tel: +998909098872, e-mail: tolibbekmirov@gmail.com, https://orcid.org/0009-0006-1324-6714